

Date: 15th January-2026

HUQUQNI QO'LLASH JARAYONI AYRIM MASALALARI.

Ergasheva Asila Alijonovna

Namangan davlat universiteti yuridik fakul'teti magistri

Annatotsiya: Ushbu maqolada huquqni qo'llash masalasi tushuntirildi, huquq normalari, ularning turlari va o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tadqiqot ishida huquqni qo'llash jarayonining davlat va boshqaruv organlari, sud-huquq tizimi hujjatlaridagi ahamiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: huquqni qo'llash, akt, sud hujjati, farmon, ijro akti, kollegial hujjatlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос правоохранительной деятельности, обсуждаются правовые нормы, их виды и специфические особенности.

Исследование также анализирует значение правоохранительного процесса в документах государственных и административных органов, а также судебной системы.

Ключевые слова: право применение, акт, судебный документ, постановление, исполнительный акт, коллегиальный документы.

Annotation: This article explains the issue of law enforcement, discusses legal norms, their types and specific features. The research also examines the importance of the law enforcement process in the documents of state and administrative bodies, and the judicial system.

Key words: application, act, judicial document, posting, executive act, collegial documents.

KIRISH

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan o'zgarishlar qonunchilikda ham o'z aksini topmoqda. Shu bilan birga mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha jabxalarida olib borilayotgan sud-huquq islohotlarida huquqni amalga oshirish, xususan huquqni qo'llash jarayonini takomillashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ijtimoiy huquqiy munosabatlarda huquqni qo'llash borasida ayrim muammolar paydo bo'lmoqda va bu muammolarni bartaraf etish borasida huquqshunoslar tomonidan yetarli darajada tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiq jarayonni talab etadi.

Huquqni qo'llash borasidagi tushunchalar nazariy va amaliy jixatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Huquqni qo'llash borasidagi muammolarni tadqiq etishda Yangi O'zbekiston sharoitida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilinayotgan dasturlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qarorlari, O'zbekiston Respublikasi xukumati qarorlarini aloxida manba sifatida olishni maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.



Date: 15th January-2026



Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar sharoitida huquq normalarini qo‘llash jarayoni hamda bu normalar qo‘llaniluvchi huquqiy hujjatlar kategoriyalarini aniqlash va ularning normative-huquqiy hujjatlardan farqini anglash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida huquqiy davlatni shakllantirishda davlatning zamonaviy huquqiy tizimida huquqni qo‘llash jarayoni va mexanizmini isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida ham huquqni qo‘llash sohasi va uning hujjatlarini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha tashkiliy-amaliy vazifalarni joriy etgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 28 apreldagi SQ 526-IV-son “Qonunlarning ijrosi holati, huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan amalga oshirilgan monitoring natijalari to‘g‘risida”gi qarorida ham huquqni qo‘llash borasida amaliyot monitoring statistik taxlil etilgan.

Huquqni qo‘llash masalasidagi tushunchalarni keng ommaga etkazishda demokratik davlar qurush nazariy asoslarini yaratgan mutafakkirlar fikrlari e‘tiborga olinadi.

Jimladan, Yuridik adabiyotlarida huquqni amalga oshirish xususida turlicha qarashlar o‘z ifodasini topgan. Masalan, huquqiy davlat nazariyasini falsafiy jihatdan asoslab bergan olimlardan biri I.Kant huquqni amalga oshirish yuzasidan quyidagicha fikrlarni ilgari surgan: “Huquqning amalga oshirilishi uning umummajburiy bo‘lishini talab etadi. Huquq majburiy kuch ishlatmasdan o‘z funksiyasini amalga oshirishga qodir emas va qat’iy imperativ umumiy qonun sifatida o‘z muqarrarligidan mahrum bo‘ladi. Huquqni majburiy kuch bilan faqat majburiyatning asl va birlamchi egasi- davlat ta‘minlay oladi. Shunisi ham borki, davlatchilik huquqqa hayot bag‘ishlaydi va qat’iy imperativ talablarini oqlaydi”.

Mamlakatimiz yetuk yurist olimlari “Davlat va huquq nazariyasi”dagi fikrlariga asoslangan tushunchalar o‘rganiladi. Bu borada, huquqshunos olim Sh.Saydullayev esa, “huquqni amalga oshirish – bu davlat tomonidan yuridik jihatdan mustahkamlangan va kafolatlangan imkoniyatlarning amalga oshirilishi bo‘lib, huquq normalarini kishilar va ularning tashkilotlari faoliyatlarida hayotga tatbiq etilishidir”, degan ta‘rifni bergan.

Mavzuni tadqiq etis borasida tarixiy va dialektik metodlar asosida tarixiy mutafakkirlar fikrlari o‘rganiladi, shuningdek, tadqiqotni tizimli, funktsional metodologiya asosida tushuntiriladi.

Xozirgi ilgor axborot texnologiyalari davrida raqamli taxnologiyalardan foydalangan xolda har bir tadqiqotni amalga oshirish statistic, kibernetik metodologiyalar asosida huquqni qo‘llash nazariy jixatlarini o‘rgatadi deb hisoblaymiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan huquq sohasidagi, ayniqsa, qonunlarni xayotga tadbqiq etuvchi davlat mexanizmini tizizmlari vakolatlariga doir hujjatlarga huquqno qo‘llashni tizimli olib boorish yo‘-yo‘riqlari ko‘rsatib berilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir

Date: 15th January-2026



tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonga ko‘ra respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning hududiy bo‘linmalari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo‘llash amaliyotini izchil va bir xilda ta‘minlash bo‘yicha choralarni amalga oshirish, shuningdek, ushbu davlat organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yagona huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantirishda metodik yordam ko‘rsatish hamda Adliya vazirligi zimmasiga huquqiy fanlarni rivojlantirish choralarni ko‘rish, davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq tizimi, mamlakatda huquq ijodkorligi, huquqni qo‘llash, huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish kabi chora-tadbirlar yuklandi[1]. Aytishimiz mumkinki, ushbu ishimizning tadqiqot doirasi bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning bir qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bugungi kunda milliy qonunchilikni tartibga solishda huquqni qo‘llash hujjatlarining joriy xulosa va tavsiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Huquqni muhofaza qilishda huquqiy tartibga solishning eng muhim bosqichlaridan birishaxslarning huquq va manfaatlarini qonun hujjatlariga asosan to‘la qonli himoya qilishdir. Aynan huquqni muhofaza qiluvchi organlar huquq normalarini qo‘llashda bosh ishtirokchi organlar hisoblanib, huquqiy majburiyatlar bajarilishini ta‘minlash orqali huquqiy davlatni muvaffaqiyatli shakllantirishga xizmat qiladi.

Huquqni qo‘llash amaliy protsessi borasida bilishimiz zarur tushuncha shuki, huquqni qo‘llash faoliyati vakolatli organlar va shaxslarning rasmiy yozma akt-hujjatini qabul qilishi bilan ya‘kunlanadi. Yaratilgan norma, qabul qilingan qonun muayyan davlat organlari va shaxslarga nisbatan majburiy, bajarilishi shart bo‘lgan va hokimiy xususiyatga ega bo‘lgan huquqni qo‘llash hujjatida ma‘lum bir davlatning kuchi va irodasi o‘z ifodasini topadi.

Belgilangan normada ko‘rsatilgan talablarni bajarmaganlik natijasida javobgar shaxs tegishli tartibda davlat majburloviga duch keladi. Bu majburlov tegishli hujjat bilan amalga oshiriladi. Huquqni qo‘llash hujjatlari huquqiy jihatdan yaratilgan davlat normalariga amal qilishni ta‘minlovchi tarbiya hisoblanadi. Maqsad kelajakda jamiyat a‘zolarini tartibga rioya etishini ta‘minlash shuningdek, mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasini va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini ifodalashdir.

Huquqshunos olimi M.Axmedshayevaning ta‘kidlashicha, “huquqni qo‘llash jarayoni, bu – qonunda belgilangan protsessual tartibda, tegishli vakolatga ega bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan, huquq normasini hayotiy holat va vaziyatlarga qo‘llash yo‘li bilan muayyan yuridik ahamiyatga molik masalani hal etishga qaratilgan davlat faoliyatidir”.

Demak, jamiyatda tartibni saqlash, mamlakatni rivojlantirish borasida normalar qabul qilinadi. Ularni quyidagicha turlarga ajratishimiz mumkin:

- Parlament aktlari;
- Davlat boshlig‘i aktlari;
- Ijro hokimiyati organlarining aktlari;
- Sud hokimiyati organlarining aktlari;
- Mahalliy hokimiyat organlarining aktlari;

Date: 15th January-2026

- Korxona, tashkilot, muassasa rahbarlarining axtlari.

Demak chiqarilgan hujjatlar ijro etishni talab etadi. Ijro jarayonida huquq xayotga tadbiiq etiladi.

Ijro ta'minlansa tegishli ijrochi qonunnni amalga oshiganligi bo'yicha alohida hujjatlar qabul qiladi, jumladan statistik hisobot, axborot tarzida. Lekin ayrim vaziyatlar paydo bo'ladiki, norma ijro etilmaydi, bajarilmaydi, rioya etilmaydi, umuman xayorga tadbiiq etilmaydi.

Bumday holatda davlatning tegishli vakolatli organi tomonidan majburliiv qo'llanadi. Bu majburlov ham vakolatli organ yoki shaxs tomonidan tegishli xarakatlar asosida va tegishli hujjatlar qabul qilish opqali amalga oshiriladi.

Huquqni qo'llash hujjatlari huquqni qo'llash jarayonining mantiqiy-huquqiy yakuni sifatida vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan aniq bir huquqiy ahamiyat kasb etgan muammoni hal etish maqsadida qabul qilinadi. Bu vaziyatda fuqarolarning ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan muammolar yuzasidan tegishli subyektlarga – davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga murojaat etib, masalani hal etish uchun tegishli qarorga kelingan yakuniy xulosa – huquqni qo'llash hujjatini chiqarishga asos qilib olinadi.

XULOSA

Huquq normalarini xayorga tadbiiq etishda huquqni qo'llash akti qabul qilinadi. Huquqni qo'llash hujjatlari muayyan huquq subyektiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki:

- Huquq normalarida belgilangan qoidalarni aniq vaziyatga qo'llaydi;
- Aniq huquq subyektining huquq va majburiyatlarini aniqlashtiradi;
- Huquq subyektining javobgarlik doirasini belgilaydi.

Xulosalashimiz mumkinki,

-huquqni qo'llash davlat tomonidan ijro etiladigan normani bajarishga qaratilgan bo'ladi;

-huquqni qo'llash vakolatli davlat organi va vazifa yuklangan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;

-huquqni qo'llashda belgilangan shaklga ega hujjatlar qabul qilinadi. Huquqni qo'llash hujjatlari orasida eng keng tarqalgan turi bu – hujjat shaklidir. Bularga misol qilib sudning hukmi, sudning ajrimi, nikohdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma va shu kabilarni keltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasida Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 18.03.2022. PQ-3666-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 28 apreldagi SQ 526-IV-son "Qonunlarning ijrosi holati, huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan amalga oshirilgan monitoring natijalari to'g'risida" gi qarori.



Date: 15th January-2026

3. Davlat va huquq nazariyasi. Saydullayev Sh. 2024. <https://library-tsul.uz>.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

